

SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT: STRATEGIK AHAMIYATI VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Tairova Ma'suma Muxamedrizayevna

*Buxoro davlat universiteti, Iqtisodiyot va turizm fakulteti, Iqtisodiyot kafedrası
dotsenti*

Hamroqulov Bekzod To'liqin o'g'li

Buxoro davlat universiteti, Iqtisodiyot va turizm fakulteti, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning raqamli iqtisodiyotdagi o'rni, uning samaradorlik, innovatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Xalqaro va O'zbekiston tajribalari misolida sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, raqobatbardoshlik, texnologik integratsiya.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА: СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И БУДУЩИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

Таирова Масума Мухамедризаевна

*Бухарский государственный университет, факультет экономики и туризма,
доцент кафедры экономики*

Хамрокулов Бекзод Толкин угли

*Бухарский государственный университет, факультет экономики и туризма,
студент 3 курса*

Аннотация: В данной статье рассматривается роль искусственного интеллекта в цифровой экономике, его значение в повышении эффективности, инновационности и конкурентоспособности. На примере международного и узбекского опыта освещается влияние технологий искусственного интеллекта на экономическое развитие.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая экономика, инновационное развитие, автоматизация, анализ данных, конкурентоспособность, технологическая интеграция.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL ECONOMY: STRATEGIC SIGNIFICANCE AND FUTURE PROSPECTS

Tairova Masuma Mukhamedrizayevna

Bukhara State University, Faculty of Economics and Tourism, Associate Professor of the Department of Economics

Khamrokulov Bekzod Tolkin ugli

Bukhara State University, Faculty of Economics and Tourism, 3rd year student

Abstract: This article examines the role of artificial intelligence in the digital economy and its impact on enhancing efficiency, innovation, and competitiveness. The influence of artificial intelligence technologies on economic development is highlighted through the examples of international and Uzbek experience.

Keywords: *artificial intelligence, digital economy, innovative development, automation, data analysis, competitiveness, technological integration.*

KIRISH

Zamonaviy dunyoda raqamli iqtisodiyot jahon iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yoʻnalishiga aylangan boʻlib, sunʼiy intellekt (SI) texnologiyalari uning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Sunʼiy intellekt nafaqat alohida sohalarni modernizatsiya qilish, balki umuman davlat miqyosidagi iqtisodiy siyosatda ham alohida oʻrin egallamoqda. Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning 2024-yilgi hisobotlarida sunʼiy intellekt texnologiyalari yordamida global iqtisodiy oʻsish surʼatlarini 10-15% gacha oshirish imkoni mavjudligi qayd etilgan. Bu esa sunʼiy intellektni raqamli iqtisodiyotning strategik asosi sifatida koʻrish zarurligini yana bir bor isbotlaydi. Bugungi kunda sunʼiy intellekt va raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib, mamlakatlarning rivojlanish strategiyalarida muhim oʻrin tutmoqda. Sunʼiy intellekt inson mehnatini avtomatlashtirish, katta hajmdagi maʼlumotlarni qayta ishlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda asosiy vositalardan biriga aylangan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar, tarmoqlar va maʼlumotlarga asoslanib, anʼanaviy iqtisodiy modelni tubdan oʻzgartirmoqda. Bu texnologik oʻzgarishlar ishlab chiqarish, moliya, taʼlim va sogʻliqni saqlash kabi koʻplab sohalarda sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Sunʼiy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar biznes jarayonlarini tezlashtirib, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Raqamli iqtisodiyot esa yangi ish oʻrinlarini yaratish, elektron tijorat va innovatsion xizmatlarni rivojlantirish orqali iqtisodiy oʻsishga turtki bermoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt (SI) va raqamli iqtisodiyot sohalaridagi izlanishlar jadal rivojlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi tobora dolzarb mavzuga aylanmoqda. Ko‘plab ilmiy manbalarda sun‘iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlarga ta‘siri chuqur o‘rganilgan. Jumladan, Brynjolfsson va McAfee¹ (2017) o‘z tadqiqotlarida SI texnologiyalari mehnat bozoriga va ishlab chiqarish samaradorligiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini tahlil qilgan. Ularning fikricha, raqamli transformatsiya iqtisodiyotning barcha jabhalarida strukturaviy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi Davos Jahon iqtisodiy forumi² (2021) hisobotlarida ham keng yoritilgan bo‘lib, unda sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar global ishlab chiqarish tizimlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali iqtisodiy o‘shishga xizmat qilishi ta‘kidlanadi. Xususan, Siemens, IBM, Google kabi kompaniyalar amaliy tajribalari sun‘iy intellektning sanoat tarmoqlaridagi muvaffaqiyatli integratsiyasini ko‘rsatadi. Mahalliy mualliflar tomonidan ham bu borada qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi³ doirasida sun‘iy intellektni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuningdek, Xolmuhamedov A.⁴ (2022) o‘z maqolasida raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion yondashuvlar, jumladan sun‘iy intellektning iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini mahalliy real holatlar bilan tahlil qiladi. Unga ko‘ra, SI texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish mamlakatda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshiradi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili sun‘iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud manbalarda ularning integratsiyalashuvi jarayonidagi iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar to‘liq yoritilmagan bo‘lib, bu tadqiqotning yangiligi va ilmiy ahamiyatini asoslaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda sun‘iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning o‘zaro aloqasi, ularning strategik ahamiyati hamda kelajak istiqbollarini tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi: tahliliy yondashuv, taqqoslash usuli, empirik yondashuv, induktiv usul.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

¹ Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). The Business of Artificial Intelligence. Harvard Business Review.

² World Economic Forum. (2021). Global Technology Governance Report.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). ‘Raqamli O‘zbekiston – 2030’ strategiyasi.

⁴ Xolmuhamedov, A. (2022). Raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish. Buxoro davlat universiteti nashri.

Raqamli iqtisodiyot real sektor va xizmatlar sohasini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda sun'iy intellekt quyidagi asosiy funksiyalarni bajarmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va prognoz qilish. Bu yo'nalishda Netflix foydalanuvchilarning ko'rish odatlarini o'rganib, shaxsiy tavsiyalar beradi. Xizmat va mahsulotlarni mijozlarga moslashtirish va optimallashtirishda Amazon va Alibaba xaridorlarning qidiruv tarixi, ijtimoiy faolligi asosida shaxsiylashtirilgan tavsiyalar taqdim etadi va sotuvlarni 35-40% ga oshiradi.

Xodimlar faoliyatini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish yo'nalishida Tesla zavodlarida SI asosida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilgan holda ishlamoqda. Bozor va mijoz talablarini oldindan aniqlash va biznes strategiyasini moslashtirish yo'nalishida Walmart sun'iy intellekt yordamida narxlarni doimiy optimallashtirib, raqobatchilardan bir qadam oldinda bo'lishga erishmoqda.

Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning strategik ahamiyatida sun'iy intellekt (SI) va raqamli iqtisodiyot bugungi global iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, mamlakatlarning texnologik rivojlanishi, iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Ular nafaqat ishlab chiqarish va biznes jarayonlarini o'zgartiradi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga ham turtki beradi. Quyida sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning strategik ahamiyatini asosiy yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Global iqtisodiyotda sun'iy intellektning raqamli iqtisodiyotga ta'sir yo'nalishlari

Yo'nalish	Ta'sir tavsifi	Misol kompaniyalar
Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish	Ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlik va tezlikni oshirish	Amazon, Tesla, Walmart
Ma'lumotlarni tahlil qilish	Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, biznes qarorlarini optimallashtirish	Netflix, Google, JP Morgan
Shaxsiylashtirilgan xizmatlar	Mijozlarga mos mahsulot va xizmatlarni taklif qilish	Spotify, Alibaba, YouTube
liyaviy xavflarni boshqarish	Firibgarlikni oldindan aniqlash va moliyaviy xavflarni kamaytirish	JP Morgan, Mastercard, Visa

Iqtisodiy samaradorlik va innovatsiyalarni jadallashtirishda sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning eng katta strategik afzalliklaridan biri ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlikni oshirishdir. Sun'iy intellekt avtomatlashtirilgan tizimlar orqali biznes jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi va natijada ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, ish unumdorligi oshadi, xizmat ko'rsatish tezligi va sifati yaxshilanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlaydigan algoritmlar bozor talablarini oldindan prognoz qilish, mahsulot va xizmatlarni yaxshilash hamda marketing strategiyalarini optimallashtirishga imkon yaratadi.

Yangi ish o'rinlari va mehnat bozori transformatsiyasida raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellektning joriy etilishi mehnat bozorining o'zgarishiga olib keladi. Ba'zi an'anaviy ish o'rinlari avtomatlashtirilsada, yangi texnologiyalar talabiga mos keluvchi mutaxassisliklar paydo bo'lmoqda masalan ma'lumotlar tahlilchilari va sun'iy intellekt muhandislari, kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassislar, bulutli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar, robototexnika muhandislari va boshqalar. Bu esa davlatlar oldiga yangi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha strategik vazifalarni qo'yadi.

Raqobatbardoshlik va milliy iqtisodiyotning global maydondagi mavqei bunda dunyoda texnologik rivojlangan mamlakatlar raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellektni faol rivojlantirib, xalqaro bozorda o'z o'rnini mustahkamlashga harakat qilmoqda.

AQSh va Xitoy SI tadqiqotlariga katta sarmoya kiritib, yetakchi kompaniyalarni qo'llab-quvvatlamoda, Yevropa Ittifoqi raqamli iqtisodiyot va ma'lumotlar xavfsizligi sohasida mustahkam strategiyalar ishlab chiqmoqda,

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar esa texnologik transformatsiya orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga intilmoqda. Shu sababli, sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotga sarmoya kiritish mamlakatning global maydondagi raqobatbardoshligini oshirish uchun strategik ahamiyat kasb etadi.


Davlat boshqaruvi va iqtisodiy barqarorlikda sun'iy intellekt davlat boshqaruvi va iqtisodiy monitoring tizimlarini yaxshilashga ham yordam beradi. Misol uchun soliq va bojxona tizimlarini avtomatlashtirish orqali byudjet tushumlarini oshirish, sun'iy intellekt asosida iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali korrupsiyani kamaytirish.

Shuningdek raqamli iqtisodiyot orqali davlatlar innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash, biznes uchun qulay muhit yaratish va investitsiyalar jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1-rasmda sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning yetakchi kompaniyalar misolida qanday rivojlanayotgani aks etgan. Sun'iy intellekt turli sohalarga integratsiya qilinib, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini jadallashtirmoqda.

Gigant kompanyalarning sun'iy intellekt bo'yicha asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- Google – sun'iy intellekt va Big Data, qidiruv algoritmlari va reklama tizimlari⁵;
- Amazon – AI asosidagi e-tijorat va logistika optimallashtirish;
- Tesla – avtonom transport va avtomatlashtirilgan haydovchi tizimlari;
- Microsoft – AI va bulut texnologiyalari (Azure AI);
- IBM – biznes tahlili va sun'iy intellekt asosida ma'lumotlarni boshqarish;
- Meta (Facebook) – sun'iy intellekt va metaverse texnologiyalari;
- Apple – AI asosida qurilmalar va shaxsiy yordamchilar (Siri);
- NVIDIA – AI uchun superkompyuterlar va grafik protsessorlar.



1-rasm. Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot kompaniyalar misolida

Ushbu kompaniyalarning sun'iy intellekt orqali iqtisodiyotga sanoatni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash, mijozlarga xizmat ko'rsatish va biznes jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Xavfsizlik va ma'lumotlar himoyasida sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb bo'lib bormoqda. Mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda SI texnologiyalaridan foydalanish quyidagi xavflarni oldini olishga yordam beradi bular Ma'lumotlar buzilishi va firibgarlik, raqamli infratuzilmalarga kiberhujumlar va davlat va xususiy sektor ma'lumotlarining noqonuniy foydalanilishi. Shu bois sun'iy intellekt asosida

⁵ Google AI Blog. (2023). Innovations in Search and Data.

ishlaydigan ilg'or kiberxavfsizlik tizimlarini joriy etish raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning strategik ahamiyati nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki milliy xavfsizlikni ta'minlash, mehnat bozorini rivojlantirish va mamlakatlarning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini mustahkamlash bilan ham bog'liq. Shu sababli, davlatlar ushbu texnologiyalarga sarmoya kiritib, infratuzilmani modernizatsiya qilish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashi lozim.

Sun'iy intellektning strategik ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Sun'iy intellekt global raqobatda yetakchilik qilish uchun muhim vositadir. Xitoyning BSiDu kompaniyasi SI texnologiyalari yordamida qidiruv tizimini takomillashtirib, mahalliy bozorda 70% ulushga ega bo'ldi. Shu bilan birga, AQShda Amazon, Google va Microsoft sun'iy intellektga asoslangan mahsulotlar va xizmatlar orqali dunyo bozorida ustunlikka erishmoqda. Sun'iy intellekt yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish jarayonini tezlashtiradi. ChatGPT kabi sun'iy intellekt modellarining ommalashuvi yangi biznes imkoniyatlarini keltirib chiqardi. Shuningdek, Estoniya e-Estonia platformasi⁶ orqali davlat xizmatlarini sun'iy intellekt asosida raqamlashtirishga erishdi.

Sun'iy intellekt davlat boshqaruvidan tortib, xususi sektor faoliyatigacha bo'lgan jarayonlarni tez va samarali raqamlashtirishga yordam bermoqda. Misol uchun O'zbekistonda soliq tizimida sun'iy intellekt asosida soliq to'lovchilar faoliyatini tahlil qilish tizimi yo'lga qo'yilgan. Moliyaviy soha va kiberxavfsizlikda sun'iy intellekt tahdidlarni oldindan aniqlash va ularni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. JPMorgan banki⁷ sun'iy intellekt yordamida firibgarliklarning 95% ini oldindan aniqlashga erishdi.

Sun'iy intellekt iqtisodiy samaradorlikka ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. Xarajatlarni qisqartirishda avtomatlashtirilgan xizmatlar operatsion xarajatlarni kamaytiradi. Bunga misol Amazon omborlaridagi⁸ logistika jarayonlarini SI boshqaradi va bu milliardlab dollar tejash imkonini beradi. Yangi ish o'rinlarida sun'iy intellekt bilan bog'liq kasblar xususan ma'lumot muhandisi, SI etikasi mutaxassisi kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda avtomatlashtirilgan tizimlar mahsulot tannarxini pasaytirish orqali korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Jahon miqyosidagi davlatlarning hozirgi kundagi sun'iy intellekt bo'yicha qilayotgan ishlari. Xitoy 2017-yilda SI bo'yicha milliy strategiyasini qabul qilib, 2030-yilgacha dunyo yetakchisiga aylanishni maqsad qilgan. AQSh sun'iy intellektga

⁶ Estonian Government. (2023). e-Estonia Platform Overview.

⁷ JPMorgan. (2023). Fraud Detection with Artificial Intelligence.

⁸ Amazon. (2024). Robotics and Warehouse Automation.

eng ko'p sarmoya kiritayotgan davlat bo'lib, 2023-yilda bu sohadagi investitsiyalar 150 milliard dollardan oshdi. Yevropa Ittifoqi SI bo'yicha qoidalar va standartlarni ishlab chiqib, texnologiya xavfsiz rivojlanishini ta'minlamoqda.

2-jadval

O'zbekistonda sun'iy intellektning raqamli iqtisodiyotga ta'sir yo'nalishlari

№	Ta'sir yo'nalishi	Qisqacha tavsif	O'zbekistondagi amaliy misollar
1	Davlat boshqaruvi	Sun'iy intellekt orqali davlat xizmatlarini raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish	Yagona interaktiv davlat xizmati portali (my.gov.uz) - AI asosida xizmatlarni tahlil qilish
2	Soliq va moliya sektori	Soliq tizimida xatolarni aniqlash, firibgarlikni oldini olish	O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi - Sun'iy intellekt asosida soliq monitoringi
3	Elektron tijorat	Xaridor xatti-harakatlarini o'rganish va tavsiyalar berish	UZUM Market - Foydalanuvchi xatti-harakatlariga mos tavsiyalar tizimi
4	Transport va logistika	Transport tizimini boshqarish va yo'llarni yuklamasini oldindan tahlil qilish	Toshshahartransxizmat - AI asosida yo'nalish optimallashtirish tizimi
5	Sog'liqni saqlash	Tibbiy tasvirlarni tahlil qilish va kasalliklarni erta aniqlash	Inha universiteti klinikasi - Sun'iy intellekt asosida tashxis qo'yish tizimi
6	Qishloq xo'jaligi	Yerlarni hosildorligini baholash va agrotexnik tadbirlarni rejalashtirish	Agroplatforma.uz - AI orqali yer monitoringi va tavsiyalar

O'zbekistonda sun'iy intellekt bo'yicha hozirgi qilayotgan ishlari va kelajakdagi rejalari. O'zbekistonda 2020-yilda sun'iy intellekt bo'yicha markaz tashkil etildi. 2023-yildan boshlab esa SI rivojlantirish bo'yicha milliy dastur amalga oshirilmoqda. IT-Park va texnoparklarda SI startaplar faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Soliq tizimi va transport boshqaruvida sun'iy intellektdan faol foydalanilmoqda. Toshkent shahrida yo'l harakati boshqaruvida SI orqali tirbandlik 20% ga kamaydi. Sun'iy intellekt davlat boshqaruvida ma'lumotlarni tahlil qilish, prognoz qilish va shaffoflikni oshirishda qo'llanilmoqda. Qaror qabul qilish jarayoni tezlashib, korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligi oshmoqda. Soliq va moliya sektorida sun'iy intellekt soliq tushumlarini prognoz qilish, soliq to'lovchilar faoliyatini monitoring qilish va moliyaviy xavflarni oldindan aniqlashda keng qo'llanilmoqda.

Banklar kredit reytingini baholashda ham sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanmoqda. Elektron tijoratda onlayn savdo platformalarida sun'iy intellekt

xaridor xatti-harakatlarini tahlil qilib, shaxsiy takliflar yaratadi va logistika jarayonlarini optimallashtiradi. To'lov xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Transport va logistikada yuk tashish yo'nalishlarini optimallashtirish, transport vositalarining texnik holatini monitoring qilish va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda sun'iy intellektdan foydalanilmoqda. Sog'liqni saqlashda tibbiy tashxis qo'yish, kasalliklarni erta aniqlash va davolash rejasini tuzishda sun'iy intellekt yordam bermoqda. Elektron sog'liq kartalarini yuritish va bemorlarni masofaviy kuzatishda ham qo'llaniladi. Qishloq xo'jaligida hosildorlikni prognoz qilish, tuproq sifatini baholash va agrotexnik tadbirlarni rejalashtirishda sun'iy intellekt muhim ahamiyatga ega. Smart-fermerlik tizimlarida ham keng qo'llanilmoqda.

Sun'iy intellektning kelajakdagi istiqbollari bo'yicha pragnozlarda PwC prognoziga ko'ra⁹, sun'iy intellekt 2030-yilga kelib global YAIMni 14% ga oshiradi. Ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish. Gartner ma'lumotlariga ko'ra, yirik korporatsiyalar qarorlarining 40% i sun'iy intellekt tahliliga asoslanadi. Sarmoya va tadqiqotlar. 2021-yilda SI startaplariga 75 milliard dollar sarmoya kiritilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yildan-yilga oshib bormoqda.

XULOSA

Sun'iy intellekt (SI) va raqamli iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqotda olib borilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, sun'iy intellekt texnologiyalari nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmatlar sifatini oshirishga, balki iqtisodiyotni tubdan raqamlashtirish orqali davlat boshqaruvi, moliya, sog'liqni saqlash, transport va qishloq xo'jaligi kabi sohalarda innovatsion yondashuvlarni joriy etishga ham zamin yaratmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida SI texnologiyalarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, mehnat unumdorligini ko'paytirish, korrupsiyaviy holatlarni kamaytirish va umumiy raqobatbardoshlikni oshirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlanmoqda:

- Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular zamonaviy iqtisodiy modelning asosi sifatida shakllanmoqda;

- SI texnologiyalari yordamida biznes-jarayonlar optimallashtirilmoqda, xarajatlar kamaymoqda, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati oshmoqda, shuningdek, bozor tendensiyalari tezroq prognoz qilinmoqda;

- Raqamli iqtisodiyot esa nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki mehnat bozorining transformatsiyasiga olib keladi. Bu esa zamonaviy kadrlar tayyorlash masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda;

⁹ PwC. (2021). AI to boost global GDP by 14% by 2030.

- SI'ning davlat boshqaruvi va moliyaviy monitoringdagi roli tobora kuchaymoqda, ayniqsa soliq, bojxona va transport tizimlarida;

- Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyani takomillashtirish: mavjud huquqiy-me'yoriy baza zamonaviy texnologik talablarga mos holda yangilanishi lozim. Jumladan, "Sun'iy intellekt etikasini tartibga solish", "Raqamli transformatsiyada xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash" kabi yo'nalishlarda normativ hujjatlar ishlab chiqilishi kerak;

- Kadrlar tayyorlash tizimini raqamli iqtisodiyot talablari asosida modernizatsiya qilish: oliy o'quv yurtlarida sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, bulutli texnologiyalar, kiberxavfsizlik kabi yo'nalishlarda yanada yangi ta'lim dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Ustuvor sohalarda xalqaro universitetlar va texnologik kompaniyalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilishi kerak;

- Xususiy sektor va startaplarni qo'llab-quvvatlash: IT-Parklar va texnoparklar bazasida sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni moliyalashtirish, soliq imtiyozlari berish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali innovatsion muhit yaratish zarur;

- Davlat xizmatlarini raqamlashtirishda SI texnologiyalaridan keng foydalanish: soliq, sud, huquq-tartibot, sog'liqni saqlash, transport kabi sohalarda sun'iy intellekt asosida prognoz qilish, xavf tahlili, resurslarni optimallashtirish tizimlari joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirish, xalqaro raqobatga bardoshli bo'lishi, samarali davlat boshqaruvi va zamonaviy biznes muhitini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ularni strategik yondashuv asosida rivojlantirish esa kelajakda mamlakatning barqaror o'sishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulloev, A. J. (2023). The role and importance of strategic planning in marketing.

2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). Raqamlashtirish – mamlakat taraqqiyotining muhim omili. *Intellectual Education Technological Solutions and Innovative Digital Tools*, 3(27), 113–121.

3. Abdullayeva, H. (2024). Korxona faoliyatida innovatsion marketingdan foydalanish. *Markaziy ilmiy nashrlar (buxdu.uz)*, 49(49).

4. Axrorovna, B. M. (2022). The importance of digitizing the tax system. *European Journal of Business Startups and Open Society*, 2(11), 1–5.

5. Giyazova, N. B. (2024). Increasing the efficiency of waste recycling in the economy of our country. *Models and Methods for Increasing the Efficiency of Innovative Research*, 3(34), 455–461.

6. Giyazova, N. B., & Sh., B. S. (2024). Zamonaviy raqamli iqtisodiyotdagi muammolar va chora-tadbirlar. *Science and Innovation*, 3(Special Issue 42), 482–489.
7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). Foreign experience in the development of mobile internet. *Innovation in the Modern Education System*, 6(49), 250–256.
8. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). Mobil to'lovlar va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati. *The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy*, 3(30), 193–197.
9. Tairova, M. M., & Zoyitov, D. (2024). Значение маркетинговых исследований в сельском хозяйстве. *Science and Innovation*, 3(Special Issue 42), 371–376.
10. Tairova, M. M., & Rakhmatullaeva, F. M. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115–118.
11. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 11, 136–143.
12. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment of agritourism clusters in Uzbekistan based on the principles of sustainable tourism. *Markaziy ilmiy nashrlar (buxdu.uz)*, 35(35).
13. Raxmatullayeva, F. M. (2024). Mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati. *Indexing*, 1(1).
14. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). Raqamli iqtisodiyotning resurslar iste'moliga ta'siri. *Models and Methods for Increasing the Efficiency of Innovative Research*, 3(34), 496–502.
15. Mubinovna, R. F. (2025). Raqamli iqtisodiyotda platformalar ahamiyati. *The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy*, 3(30), 220–225.